

**IMOM AL-BUXORIYNING ILMIY MEROSI VOSITASIDA O‘QUVCHI-YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH
TEKNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI**

*Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
Andijon davlat universiteti
“Umumiy pedagogika” kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida o‘quvchi-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish, Buxoriy asarlarida farzand tarbiyasi haqidagi fikrlar yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: Ta’lim texnologiyalari, madaniyat va ma’rifat, saxih hadislar, tarbiyaviy ishlar, ma’naviy qadriyat, milliy iftixor, hidoyat yo‘li, ilmiy meroslar, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье, используя научное наследие Имама Аль-Бухари, совершенствуя технологии формирования чувства национальной гордости у студентов и молодежи, рассматриваются идеи о воспитании детей в произведениях Бухари.

Основные понятия: Образовательные технологии, культура и просвещение, достоверные хадисы, просветительские произведения, духовная ценность, национальная гордость, путь руководства, научное наследие, педагогическая и профессиональная подготовка.

Annotation: In this article, using the scientific heritage of Imam Al-Bukhari, improving the technologies of forming a sense of national pride in students and young people, the ideas about child education in Bukhari's works are discussed.

Basic concepts: Educational technologies, culture and enlightenment, authentic hadiths, educational works, spiritual value, national pride, guidance path, scientific heritage, pedagogical and professional training.

Imom Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy... Yer kurrasining biron-bir go’shasida “hadis ilmining sultoni”, “jami muhaddislar imomi” degan sharafli unvonlarga muvassar bo‘lgan bu tabarruk zotning nomini eshitmagan kishi bo‘lmasa kerak. Qadim Buxoroi sharifda tavallud topgan buyuk vatandoshimiz ahli iymon va umuman bani odamga qoldirib ketgan tengsiz meros-janob Payg‘ambarimiz Muhammad alayxissalomning muborak hadislarini yig‘ilgan nodir durdona- “Sahih al-Buxoriy” asari, islom dinida Allohning kalomi –Qur’oni karimdan keyin turadigan asosiy manba hisoblanadi. Mana qariyb o‘n ikki asrdirki, mo‘tabar to‘plam butun bashariyat qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, hidoyat yo‘liga chorlab kelayotir. Mag‘ribu mashriqqa dong‘i-ilmu irfonga makon va zaminimizdan-Buxorodan etishib chiqqanligidan haqqoniy ravishda faxrlangan xolda qalbimiz cheksiz faxr va iftixor tuyg‘ulariga to‘lishi tabiiydir.

Xorijda xususan, islom olamida buyuk vatandoshimizning hayoti va ilmiy faoliyatiga qiziqish azaldan mavjud. Bir lahza ham to‘xtamasdan sobitqadamlik bilan o‘rganilib, ko‘p asarlar yozilib, kitoblari takror-takror nashrvqilinmoqda.

Umuman olganda, allomaning hayoti va ilmiy faoliyatini chuqur va har tamonlama o‘rganishning ko‘p ibratli, tarbiyaviy tamonlari bor. Imomdagi ilmga chanqoqlik va ulkan xotira, xayrli yo‘lda har qanday mashaqqat-qiyinchiliklarga bardosh

berish- Payg`ambar alayxissalomning muborak hadislarini to`plagani, hadislarini aslini va barcha roviylarini aniqlash yo`lida alloma qanchadan-qancha mamlakatlar, shahar va qishloqlarga safar qilgani, ot-ulovlarda, piyoda cho`lu-biyobonlarni kezgani, to`plagan hadislarini to`g`ri, ishonchli bo`lishi uchun aql bovar qilmas darajada mehnat qilgani abadiyat qadar avlodlar tahsiniga sazovordir. Bularning barchasi o`quvchi-yoshlar uchun salmoqli va eskirmas ibrat va hayotiy saboqdir. Biz bobokalonimiz al-Buxoriy asarlari orqali milliy iftixor tuyg`ularini shakllantirishning ayrim tamonlariga to`xtalib o`tamiz:

O`quvchilarni tarbiyalash odatda ko`p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu singari ta`limni ustuvor yo`nalishlari asosan bolalarning jismoniy va axloqiy rivojlanishi;

• intellektual shakllanishi;

• shaxsiy madaniyati va ma`naviy qadriyatlarini shakllantirish;

• huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish;

• estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish;

• o`quvchilarning mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarlikni olib borish zaruriyatidir.

Pedagogik faoliyatda vazifalarni bajarish uchun maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli usullar ham qo`llaniladi: Mashg`ulotlarni olib borishda vatanparvarlik tarbiyasi asosan turli shakllarni o`z ichiga oladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyasi bilan ishlashda o`quvchilar texnologiyalarini boshqarish qatorida ko`nikma malakalarga ega bo`ladi. Unutmaslik kerak odatda har qanday maktabda bolalarning darsdan tashqari mashg`ulotlarini, shu jumladan bo`sh vaqtlarini tashkil etish o`qituvchilar uchun juda muhim faoliyat sohasi bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi. O`quvchi va yoshlarni darslardan tashqari qo`shimcha darslar tashkil qilish, ular bilan ko`proq erkin muhitda muloqot qilish ularning rivojlanishi va o`qishi uchun juda zarur hisoblanadi. Bu esa o`quvchi va yoshlarning o`zi uchun juda muhim, chunki o`quvchilar bilan yaqinroq tanishishga, yaxshi munosabatlarni o`rnatishga yordam beradi. O`qituvchilarning o`quvchilar uchun kutilmagan jozibador muloqatiga aylanadi. Bu o`qituvchining ishiga bo`lgan ehtiyojini, uning ijtimoiy ahamiyatini va dolzarbligini his qildiradi. O`quvchi va yoshlar bilan maktab tarbiyaviy ishlarining shakliga nisbatan erkin faoliyat asosida tashkil etishning aniq usuli, kattalar uchun pedagogik jihatdan mos keladigan rahbarlik bilan belgilanishi mumkin. Ta`lim amaliyotida mehnatning xilma-xil shakllari mavjuddir, ularni tasniflash bir oz qiyin. Shu bilan birga, biz tarbiyaviy ishning ustunligini va asosiy tarkibiy qismini ta`kidlab, tarbiyaviy ish shakllarini soddalashtirishga harakat qilamiz. O`quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg`usini shakllantirishda o`qituvchilar turli metod va usullardan foydalanadilar. Ammo tarbiyaviy ahamiyatning ta`lim shakli bu didaktik texnologiyasidir. Yosh o`quvchilar didaktikalarning, oddiygina xatti-harakatlarning ijtimoiy shaklini taqlid qilishga qaratilgan. Bir tomondan, bolaning biologik tabiati butunlay didaktikada namoyon bo`ladi, boshqa tomondan-ijtimoiy moslashishga tayyorlik kuzatiladi. Didaktik texnologiyada kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o`qitiladi, qadriyatlar ishlab chiqiladi. Tarbiyalash usullarini qo`llashda "tarbiyaviy muammolarni hal qilish yoki " o`quvchi va yoshlar hayotini, faoliyatlarini, munosabatlarini, muloqotini, faoliyatini rag`batlantiruvchi va xulq-atvorni tartibga solishga ko`maklashadigan

kattalar va bolalar o’rtasidagi pedagogik jihatdan mos keladigan o’zaro hamkorlikning ijtimoiy usullari etib belgilash mumkin. O’quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish va vatanparvarlik hissi bilan tarbiyalashning individual shakllari orasida mustaqil tadqiqotlar (uy vazifasi) alohida ajralib turadi. Masalan, o’quvchi va yoshlarga Vatan tarixidagi jangarilar, ilmiy meroslar, ekspluatatorlar, jasoratli va shon-sharaflar haqidagi asar epizodlarini o’qish qiziqarli hisoblanadi. Hissiy tajribalar ham shu singari har qanday aqliy jarayonga ta’sir ko’rsatadi va ularning birlashishi uchun asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Ichki emotsiyalar aqliy hayotning tizimi hisoblanib faoliyatning eng funksional psixologik tizimini shakllantirish omilidir. Aniq harakatlar bilan belgilanadigan hissiy baholashlar asosida o’quvchi va yoshlarning shaxsiy sifatida empatiya shakllanib boradi. O’quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish bilan tarbiyalashning individual shakllari asosan oilada amalga oshiriladi. Shuning uchun o’qituvchi o’quvchilarning oilalari bilan yaqin aloqani o’rnatishi, ota-onalar esa bolalarni vatanparvarlik bilan tarbiyalash jarayoniga jalb qilinishi kerak. Shunday qilib, o’quvchilarda o’quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish ishining muvaffaqiyati asosan o’qituvchilarning axloqiy va psixologik ko’rinishiga, ularning pedagogik va kasbiy tayyorgarligiga, o’z vazifalariga munosabatiga, ota-onalari bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatiga bog’liqdir.

Shu o’rinda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o’z nutqlarining birida shunday dedi: “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo’lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo’lsa, baxtli bo’lsa, vatan tinch bo’ladi. O’sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko’rish hammamizga nasib etsin!»”. Bugungi kunda davlatimiz raxbarining ushbu eng muhim ustuvor masalasi barchani diqqat-e’tiboridadir. Asosan yoshlar huquqi bilan bog’liq davlat qonunchiligi ham takomillashtirilmoqda. Shunga qaramay, bu yo’lda hali ko’p ishlar amalga oshirish lozim. Birinchidan, keng miqyosda talab qilinadigan ishda jamoat, ko’ngillilar, ko’ngilli tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining kuchli imkoniyatlaridan to’liq foydalanish ham zarur. Faqat mana shunday faol qo’llab-quvvatlashga tayanib, biz aniq natijalarga erishamiz. O’tgan ajdodlarning ijtimoiy qimmatli tajribasidan foydalanib oilaviy munosabatlar, o’qish va ishlashga yondashuvlar, ijodiy harakatlar uyushtirish qulay imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, buyuk bobokalonimizning asarlari bizga dasturi amal hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent:O`zbekiston, 2017-y
2. Alimov U. Imom al-Buxoriy barokati.-Toshkent: Movarounnahr, 2007.
3. M.M. Xayrullayev tahriri ostida Ma`naviyat yulduzlari. T; Me`ros , 1999-y
4. Uvatov Ubaydullo. Donolardan saboqlar. T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994-yil.
5. Uvatov U. Hadis ilmining sultoni. O`zbekiston adabiyoti va san`ati. –Toshkent:2001-yil.

6. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Abu Abdulloh Muhamad ibn Ismoil. Al-Jome` as-sahih (ishonarli to`plam)/ mutarjim: Abdulg`ani Abdulloh. Muharrirlar: professor Ne`matulloh Ibrohim ba shoir Mirzo Kenjabek. 4-jild. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1999.

7. Eshonjonov B. Imom Buxoriy-A ovrupaliklar nigohida// Sharq mash`ali.- Toshkent, 1998-y